


Kitobsiz uy – qalbsiz
tanaga oʻxshaydi.
SITSERON.



Savodli boʻla turib kitob
oʻqimagan kishining
savodsizdan farqi yoʻq.
Mark TVEN.



Men doimo jannat
kutubxonaga oʻxshagan
joy boʻlsa kerak, deb
oʻylayman.
Jorj Luis BORXES.




Kitobdek aqli va sodiq
doʻst yoʻq.
Ernest HEMINGUEY.



TO QUYOSH SOCHGAYKI NUR...
Erkin Vohidov nomidagi
ijod maktabi

OZBEGIM

2022-yil 20-noyabr № 8



**YANA
SHE'RIMGGA**

She'rim! Yana o'zing yaxshisan,
Boqqa kirsang, gullar sharmanda.
Bir men emas, hayot shaxsisan,
Jonim kabi yashaysan manda.
Yuragimning dardi – naqshisan,
Qilolmayman seni hech kanda!
O't bo'lurmi ishqiy yo'q tanda?
Dardimsanki, she'rim yaxshisan.
Sen orada ko'prik bo'lding-da,
Geyne bilan o'rtoq tutindim.
Lermontovdan ko'mak o'tindim.
Butun umrim sening bo'yningda.
Saharda qon tupursam, mayli.
Men – Majnunman, she'rim, sen –
Layli!

MUQADDASDIR VATAN BAYROG'I

O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i qabul qilinganligining 31 yilligi Farg'ona viloyati bo'ylab keng nishonlandi



Har bir inson ong-u shuuriga Vatanimiz ramzlariga nisbatan chuqur hurmat tuyg'ularini singdirish, umummilliy va ehtirom timsollari bo'lgan bayroq, gerb va madhiyamizni ulug'lash va ardoqlash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Ushbu davlat ramzlaridan biri O'zbekiston Respublikasining "Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonuni 1991-yil 18-noyabr kuni qabul qilindi va shu kundan boshlab Davlat bayrog'i qabul qilingan kun milliy iftixorimiz sifatida katta tantana bilan nishonlab kelinmoqda.

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Muqaddasdir Vatan bayrog'i!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlar, ochiq darslar hamda "Ma'rifat soatlari"ni o'tkazildi. Ijod maktabi hududi bo'ylab bayroqlar hamda uni aks ettiruvchi targ'ibot vositalari o'rnatildi.

Tantanali o'tkazilgan bayram tadbiri "Ijodkorlar bog'i"da tashkillandi va harbiylar, murabbiy-o'qituvchilar, o'quvchilar, keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi. Bir chiziqda saf tortgan, g'urur ila Vatan bayrog'ini qo'lida tutgan ijod maktabi iste'dodli o'quvchilarining qalbini, ong-u shuurini yana bir bor faxrga, iftixorga to'ldirgan bayramning tarovati, jozibasi butun umrga tark etmaydi degan umiddamiz. Harbiy orkestrlarning harbiy qo'shiqlari, ijod maktabi o'quvchilarining ijodiy, bayramona chiqishlari, Marg'ilon shahar sport maktabi sportchilarining sport o'yinlari har bir yurtdoshimizga o'zgacha shukuh ulashdi.

Jonajon yurtimiz osmoni bayroqning butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang kabi musaffo, Vatanimizning taraqqiyot yo'li va har birimizning hayot yo'limiz bayroqdagi oq rang kabi pok hamda to'q yashil rang kabi farovon bo'lsin. Ushbu muhim sana – qutlug' kun barchamizga muborak bo'lsin!



"YOSH KITOBXON" SOVRINI SARI ILK QADAM

11-noyabr kuni – O'zbekiston kasaba uyushmalari kuni munosabati bilan Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida 9-, 10-sinf o'quvchilari o'rtasida "Yosh kitobxon" tanlovining maktab bosqichi tashkil etildi.

Tanlovning maqsad va vazifalari yozuvchi, adib va mutafakkirlarning adabiy merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o'rganish va targ'ib etish, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, yoshlarimizni vatanga sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iborat.

Ushbu tanlovda faxrli 1-o'rinni Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi 9-sinf o'quvchisi Durdona Baxtiyorova egallab, munosib natija ko'rsatdi.

kattani muqaddam qo'yishni o'rgatganlar. Buyuk sahobiy Molik ibn Huvayris roziyallohu anhu shunday dedilar: "Biz Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning oldilariga bordik. Birga borgan sheriklarim bilan mening yoshim teng edi. U zotning oldilarida yigirma kecha turdik. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam rahmli va muloyim zot edilar. U zot bizni o'z ahlimizni mushtiq qilib kuttirib qo'ydi, deb o'yladilar va bizdan qoldirib kelgan qavmimiz haqida so'radilar. Biz kimlarni qoldirib kelganimizni u zotga aytdik. Shunda u zot: «Ahllaringizga qaytinglar va ular bilan birga turinglar. Ularga (mendani o'rganganlaringizni) o'rgatinglar va (o'rgatganlaringizga amal qilishlarini) buyuringlar. Agar namoz vaqti bo'lsa, biringiz azon aytsin, yoshi kattarog'ingiz imomlikka o'tsin" dedilar». Buxoriy va Muslim rivoyat qilishgan.

18. Mehmondorchilikda taom va boshqa narsalarni ulashish odobi. Ziyofat va ulug'lashda kattalarni va fazl egalarni muqaddam qo'yish lozim. Beradigan va ulashadigan narsalarni avval ulardan boshlash kerak. Imom Muslim o'zlarining "Sahih" laridagi "Taom va sharobga tegishli odob va hukmlar" degan bobida Huzayfa ibn Yamon roziyallohu anhudan quyidagi rivoyatni keltiradilar: "Biz agar Rasululloh sollallohu alayhi vasallam bilan birga taomga chaqirilsak, to Rasululloh sollallohu alayhi vasallam ovqatga qo'l cho'zmaganlaricha biz cho'zmas edik". Abdulloh ibn Mas'ud roziyallohu anhudan rivoyat qilindi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Sizlarning ichingizda menga eng yaqiningiz yoshi ulug' va farosatli, aqlli, zehnu zakovatilaringiz, keyin ulardan keyingi o'rinda turadiganlaringiz, keyin ulardan keyingi o'rinda turadiganlaringiz, keyin ulardan keyingi o'rinda turadiganlaringiz". Abu Muso Ash'ariy roziyallohu anhudan rivoyat qilindi: "Rasululloh sollallohu alayhi vasallam dedilar: "Soch-soqoli oqargan musulmonni, Qur'oni yodlab, unga amal qilishda haddidan oshmagan va amal qilmasdan tashlab ham qo'ymagan qorini hamda adolatli sultonni hurmat qilish, ularga ikrom ko'rsatish Allohni ulug'lash turkumiga kiradi". Abu Dovud rivoyati. Bu hasan hadis.

Ba'zilar ishlarni o'ng tomondan boshlashga targ'ib bo'lib kelgan hadislarini noto'g'ri tushunib: "Taom va hadyalarni kim bo'lishidan qat'i nazar o'ng tomondan boshlash lozim" deyishadi. Bu hukm o'tirganlarning hammasi yoshda, ilmida, fazlda teng bo'lsalargina joriy qilinadi. Ammo hamma ilm va fazlda teng bo'lsayu, bir kishining yoshi boshqalardan kattaroq bo'lsa, avval undan boshlanadi.

19. Musulmon kishining o'z ota-onasi bilan gaplashish, ularning yonida ovozi past-balond qilish hamda ular bilan birga yurishdagi odoblari. Ota-onangiz bilan birgaligingizda odobga qattiq amal qiling. Chunki, ular siz ehtirom qilishingizga eng loyiq va eng haqli kishilardir. "Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga kelib: "Ey, Allohning Rasuli, mendan go'zal muomalani ko'rishga insonlardan eng haqlisi kim" dedi. U zot: "Onang, so'ngra onang, so'ngra onang, keyin otang, undan keyin yaqin qarindoshlaring" dedilar. Buxoriy va Muslim rivoyatlari. Hishom ibn Urva otasidan rivoyat qiladi: "Abu Hurayra roziyallohu anhu bir kishining boshqa bir kishining oldida ketayotganini ko'rib: "Bu odam senga kim bo'ladi" deb so'radilar. U: "Otam" dedi. Shunda u zot: "Otangning oldida yurma, u o'tirmagunicha sen ham o'tirma va uni ismi bilan chaqirma" dedilar. Buni Buxoriy "Al-adab al-mufrad"da, Abdurrazzoq esa o'zlarining "Musannaf" nomli kitoblarida rivoyat qilishgan. Ulug' tobein Tovus ibn Kayson shunday deydi: "To'rt kishini hurmat qilish sunnatdandir: olim, soch-soqoliga oq tushgan musulmon, sulton va ota. Kishi otasini ismi bilan chaqirsa, unga jafo qilgan bo'ladi".

Imom Buxoriy nomli Toshkent islom instituti bitiruvchisi Nozimjon Iminjonov tarjimai asosida Abdurahmon LATIPOV tayyorladi.



O'zbekim Adabiy, ilmiy-ma'rifiy jurnal

MUASSIS:

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi

Bosh muharrir:

Nigora MANNOPOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Bahodir ISO
Gulchehra ASRONOVA
Muhammadamin NURMATOV
Jamoliddin BADALOV
Mahmudxon QO'CHQOROV

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Nilufar ERGASHEVA – 11-sinf
Gulzoda TURDALIYEVA – 11-sinf
Murodil SOBIROV – 9-sinf
Nigina ERGASHEVA – 10-sinf

Rasmlar muallifi:
Abduhayot Abduqodirov

Tahririyat manzili:

Marg'ilon shahar, Turkiston ko'chasi, 138-uy.

Bizni @erkinvohidovmaktabi telegram manzili orqali kuzatib boring.

Abu G'udda

Islomiy ODOB

Avvalgi maqolada mehmonga borishdagi ayrim islomiy odoblar bayon qilingan edi. Unda mehmonga borgan odam uyga kirayotganda ko'zlarini tiyib kirish odobi, mehmonga borgan odamning mezbonning uyida qayerni ko'rsatsa, o'sha yerga o'tirishi va uning ikromini qabul qilishi, shuningdek mehmonga borganda u joydagi katta va kichiklar bilan gaplashish odoblari ko'rsatib o'tilgan edi.

Muallif islomiy odoblar ta'limi davomida yozadilar:

14. Mehmondorchilikka borgan u erdagi boshqa mehmonlar bilan o'tirish odobi.

Agar bir majlisga kirsangiz ikki kishining o'rtasiga o'tirmang.

Balki, ularning o'ng yoki chap taraflariga o'tiring. Chunki, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Ikki kishining o'rtasiga, faqat, ular ruxsat bergandagina o'tirish mumkin" deganlar. Abu Dovud rivoyati. Ikki kishining o'rtasiga o'tirishga ruxsat berilgan odam chordona qurmay, o'zini yig'ishtirib o'tirishi lozim.

Agar ikki kishining yoniga o'tirib qolsangiz, ularning gaplari o'zaro sirliligi va ulargagina xos gap bo'lsa, gaplariga quloq solmang. Agar shunday bo'la turib quloq solsangiz, katta ayb ish qilgan bo'lasiz. Agar uch kishi gaplashib o'tirgan bo'lsangiz, ikki kishi o'zaro maxfiy gaplashmanglar, zero bu ish uchinchi kishini xafa qiladi, sizlardan uzilishiga, ajralishiga sabab bo'ladi.

Bu musulmonchilikka to'g'ri keladigan ish emas. Shuning uchun ham Nabiy sollallohu alayhi vasallam bunday ishdan qaytarib: "Uchinchi kishi ham bor joyda ikki kishi o'zaro pichirlashib gaplashmaydi" deganlar. Imom Molik va Abu Dovud rivoyat qilishgan.

15. Musulmon kishining o'zidan kattalar bilan yurish, gaplashish va boshqa muomalalardagi odobi.

O'zingizdan katta kishilarning hurmatini va qadrini biling. Agar ular bilan birga yursangiz, ularning o'ng tomonlarida va biroz orqaroqda yuring. Ular bilan biror joyga kirish va chiqishda, ularni o'zingizdan muqaddam qo'ying. Ular bilan uchrashib qolsangiz, siz birinchi bo'lib salom bering va hurmat ko'rsating. Agar teng gapirish to'g'ri kelib qolsa, avval ularning gapirishiga imkon bering. Ularga tavoze' ko'rsatgan holda so'zlariga quloq tuting. Agar ularning gaplarida sizni ham munozaraga chorlaydigan masala ko'tarilsa, odob, ohistalik va lutf bilan munozaraga qiling. Ularga so'zlayotganingizda, mayin va yumshoq ovozda gapiring. Ularga xitob qilmoqchi va ularni chaqirmoqchi bo'lsangiz, xitob qilish va chaqirishda ham ularning hurmatini joyiga qo'yishni unutmang. Quyida ushbu odobga chorlaydigan ayrim hadislari va asarlarni keltiramiz. Aka-uka Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning huzurlariga bir voqeani aytish uchun kelishdi. Ulardan biri ikkinchisidan katta edi. Kichigi gap boshlamoqchi edi. Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kattani hurmat qil", ya'ni unga avval gapirishga imkon ber, dedilar. Buxoriy va Muslim rivoyat qilishgan. Yana Rasululloh sollallohu alayhi vasallam: "Kattalarimizni hurmat qilmagan, kichiklarimizga rahm qilmagan va olimlarimizning haqqini bilmagan bizdan emas" dedilar. Bu hadisni imom Ahmad, Hokim va Tabaroniyar Uboda ibn Somit roziallohu anhudan rivoyat qilishgan.

17. Yosh va ilmda bir-biriga yaqin bo'lgan kishilarning o'rtalaridagi suhbat odobi.

Sayyidimiz Rasululloh sollallohu alayhi vasallam yoshlarga suhbat va birga o'tirish odobini, kishi o'zidan



KO'NGILGA QAYTIB...

Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida tashkil etilgan "Ko'ngilga qaytib-2022" sarhisob tanlovi ilmiy va ijodiy salohiyati yuqori, faol o'quvchilarni aniqlash va rag'batlantirish maqsadida 1-chorak so'ngida o'tkazildi.

Tanlovda barcha sinf o'quvchilari yangidan yangi ijodiy ishlari va qoyilmaqom ijrolari bilan faol ishtirok etdi. Ushbu tanlov maktab-internati ma'muriyati tomonidan o'quvchilar uchun ta'xis etilgan. Avvalo, unib o'sib kelayotgan yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, ona yurt taqdiriga daxldorlik hissi bilan yo'g'rilgan mazmunan teran, badiiy yetuk asarlar va ijod namunalari yaratish, iste'dodlarni kashf etish va ularni munosib rag'batlantirish ushbu tanlovning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Tanlovda o'quvchilar adabiyotning nazm, nasr, bolalar adabiyoti, mumtoz hamda badiiy tarjima yo'nalishlarida bellashishdi. Shu bilan birga tanlov hakamlari xulosasiga, tomshabinlarning e'tiroflariga ko'ra nazm yo'nalishida "Eng yaxshi she'r" nominatsiyasida 11-sinf o'quvchisi Oллоhуor Erkinov,

nasr yo'nalishida "Eng yaxshi nasr" nominatsiyasida 8-sinf o'quvchisi Feruza Abdulaxatova, badiiy tarjima yo'nalishida "Eng yaxshi tarjima" nominatsiyasida 9-sinf o'quvchisi Durdona Nabijonova, mumtoz adabiyot yo'nalishida "Eng yaxshi g'azal" nominatsiyasida 10-sinf o'quvchisi Nuriddin Rahmonaliyev, 11-sinf o'quvchisi Avazbek Adhamjonov, bolalar adabiyoti yo'nalishida "Eng yaxshi she'r" nominatsiyasida 7-sinf o'quvchisi Nodirabegim Xoldoralievlar g'olib deb topildi.

Tanlov yakunida ilm egalari yanada qo'llab-quvvatlash, o'quvchilar o'rtasida sog'lom ijodiy raqobatni yuzaga keltirish, ustozlarning mehnatini qadrlash maqsadida "Ko'ngilga qaytib-2022" sarhisob tanlovining munosib sohiblari eng bilimli, iste'dodli, faol, tashabbuskor, intiluvchan, ijodkor o'quvchilar hamda faol sinflar turli nominatsiyalar bo'yicha maktab ma'muriyati tomonidan taqdirlandi.

YO'LIMIZ BIR, MAQSAD MUSHTARAK

O'zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov shunday yozadi: "Qo'shiqning joni kuy bo'lsa, vujudi she'rdir. So'z va kuy jismi jon kabi bir butun bo'lgan joyda haqiqiy qo'shiq paydo bo'ladi va bunday qo'shiqning umri boqiy bo'ladi. Ana shunday kuyni ijod qilgan ham, shunday she'rni yozgan ham, dunyoga kelganidan rozi bo'lsa haqli". Darhaqiqat, shunday!

Kamina faoliyat olib borayotgan Prezident ta'lim muassasalari agentligi tasarrufidagi Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabida tashkil etilgan "Tarannum" musiqa to'garagi hamda "Nasr" adabiy to'garagi o'rtasida ijodiy hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Yaqinda ushbu to'garaklar a'zolari ishtirokida mahorat sabog'ini o'tadik. Unda yoshlarning qalbida musiqa va adabiyotga bo'lgan muhabbatni yanada oshirish ko'zda tutilib, musiqa ijrochiligi amaliyotidagi she'riyatning o'rni, adabiyot va san'atning bir-biriga uyg'unligi, bugungi yosh avlod

ong-tafakkuriga ta'siri, tarbiyaviy ahamiyatga qay darajada ega ekanligi, saviyasi, mumtoz adabiyot, badiiyhago'ylik haqida atroflicha fikr almashildi.

Mahorat darsi davomida to'garaklarning hamkorlikka asoslangan istiqbolli rejaları kelishib olindi. O'ylaymizki, bunday integratsiya, albatta, o'z samarasini beradi va bolalarning musiqiy-adabiy saviyasi yuksak, tafakkuri teran bo'lib o'sishlariga zamin bo'ladi. Zero, bu ikki jilg'aning ohanglari mushtarak, yo'li birdir.



Murodjon KAMOLIDDINOV,
"Tarannum" musiqa
to'garagi rahbari



HUMOYUN (Akbarov Humoyun) O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi, "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasida nazm va nasr bo'limi mudiri vazifasida ishlaydi. O'ndan ortiq she'riy kitoblari, esselar to'plami chop etilgan. Dunyo adabiyoti yirik namoyandalarning esselaridan iborat "Sim-sim... Mutolaa sirlari" hamda "Ijod falsafasi" to'plamlarini jamlab, nashrdan chiqargan. Jahon adabiyotidan 13ta badiiy kitobni ona tilimizga mohirona tarjima qilgan.

KITOB HAM SHAXS

Shoir, tarjimon, publitsist
HUMOYUN bilan suhbat

— Assalomu alaykum, ustoz! Mamlakatimizning bosh adabiy nashrida ishlaydigan tajribali mutaxassis hamda shoir sifatida bugun jamiyatga qanday mavzudagi asarlar zarur, deb hisoblaysiz?

— Va alaykum assalom. Bugun ham, ertaga ham har qanday jamiyatga uni rivojlantiradigan, odamlar tashvishlarini yengillatadigan asarlar kerak. Mavzu esa, istagandek bo'lishi mumkin. Kimdir jamiyatning yutuqlarini, boshqasi kamchiliklarini yozadi. Ikkisi ham zarur, faqat kitobxonning saviyasini oshiradigan asarlar bo'lsa... Irland shoiri Persi Bishi Shelli "Shoirilar – jamiyatning e'tirof etilmagan qonun ijodkorlari", deb yozgan edi. Ijodkor jamiyatni, millatni olg'a boshlaydigan yalovbardor va uning bu martabaga loyiq bo'lishi ko'p bilim, fazilat, harakatni talab etadi. Adabiyot tarixiga qarasangiz, Vatanni ulug'lash va xalqni, adolatni himoya qilish, ozodlik uchun kurashga chorlagan asarlarning mualliflari yuqori pog'onalarda turadi.

— Jahon adabiyotiga hamnafaslik maqsadida hayo chegarasidan chiqib ketayotgan asarlarga qanday qaraysiz?

— Keyingi chorak asr davomida yurtimizda jahon adabiyotiga oid asarlar mutolaasi kuchayganini tan olish kerak. Ammo biz azaldan milliy adabiyotga odob o'rgatuvchi o'ziga xos fan sifatida qarab o'rganganmiz. Shunday ekan, hayo chegarasidan chiqib ketgan bunday asarlar bizda keng tarqalishi mumkin, ammo kitobxonlar orasida obro' qozonolmaydi. Bizning o'quvchi ularga ikkinchi darajali asar yoki ko'ngilxushi adabiyot sifatida munosabat ko'rsatishiga shak-shubham yo'q. Saviyali kitobxon shunday qiladi. Bir so'z bilan aytganda, bu jiddiy adabiyot emas. Milliy an'analarga, odob-axloq me'yorlariga zid asarlar, afsuski, ko'payib boryapti, o'zimizda ham shunday asar yozishga taqlid qiluvchilar topilyapti. Ammo bu asarlar yurakni jizillatmaydi, ermak sifatida qaralishi



Baxt degani dillarning uyg'unlashib ketishi degan so'z.

„OQ KEMA“ KINOFILMI HAM ASAR KABI SHUHRAT QOZONDI. „SOHIL YOQALAB CHOPAYOTGAN OLAPAR“ (1977) QISSASIDA MUHIM MA'NAVIY MASALALAR SHO'RO DAVRIDAGI HAYOTNING MASH'UM MANZARALARI O'Z IFODASINI TOPGAN. "ASRGA TATIGULIK KUN" (1980), „QIYOMAT“ (1986), „KASANDRA TAMG'ASI“ (1990) ROMANLARIDA ZAMONAMIZNING UMUMINSONIY TOMONLARI, ONA SAYYORAMIZNING TAQDIRI, KUCHLI FALSAFIY, AXLOQIY VA IJTIMOY MUAMMOLARI KO'TARILGAN.

2018-yilda adib tavalludining 90 yilligini nishonlash haqida O'zbekiston Prezidentining qarori e'lon qilindi. Unga ko'ra: „Chingiz Aytmatov va O'zbekiston“ nomli xotira kitobini nashrga tayyorlash va chop etish; Chingiz Aytmatov hayoti va ijodiy faoliyati haqida hujjatli film yaratish; yozuvchi asarlari asosida yangi spektakl sahnalashtirish va badiiy film suratga olish; Chingiz Aytmatov xotirasini abadiylashtirish maqsadida Toshkent shahrining markaziy ko'chalaridan biriga adib nomini berish; Toshkent viloyati Parkent tumanidagi 33-maktabda adib byustini o'rnatish tayinlandi.


Sahifani 7-«B» sinf o'quvchisi, «Kompyuter grafikasi» to'garagi a'zosi Shaxnoza NUMONJONOVA tayyorladi.

CHINGIZ AYTMATOV

Hayoti va ijodi

Chingiz To'raqulovich Aytmatov (12-dekabr, 1928 – 10-iyun, 2008) – Qirg'iziston xalq yozuvchisi (1968). Qirg'izistondagi Talas vodiysining Shakar ovulida tug'ilgan. Qirg'iziston Fanlar Akademiyasi akademigi (1974). Qirg'iziston qishloq xo'jaligi institutini tamomlagan (1953). 1956 – 1958-yillari Moskvadagi yozuvchilar uyushmasi Oliy adabiyot kursi tinglovchisi. Asarlarini qirg'iz va rus tilida yozadi. Ilk hikoyalari 1950-yillarda bosilgan.

Yozuvchining qariyb hamma asarlari o'zbek tilida nashr etilgan. **Aytmatov o'zbek adabiyoti**, umuman, o'zbek madaniyati tarixini yuksak baholab, „Qadim-qadim o'zbek madaniyatining O'rta Osiyoga ko'rsatgan ta'sirini ko'hna Vizantiyaning Qadim Rusga ko'rsatgan ta'siri bilan qiyoslash mumkin“, deb hisoblaydi. Aytmatov O'zbekiston Respublikasining „Do'stlik“ (1995), „Buyuk xizmatlari uchun“ (1998) ordenlari bilan mukofotlangan. Qirg'iziston Respublikasida Xalqaro Chingiz Aytmatov nomidagi „Oltin medal“ mukofoti ta'sis etilgan (1999).



mumkin. Jiddiy o'quvchi esa, kitobni ermak uchun yoki vaqt o'tkazish uchun o'qimaydi.

— **“Ijod falsafasi” va “Mutolaa sirlari” nomli kitoblarni tayyorlashda sizga qaysi omil turtki bo'lgan? Bu to'plamlar faqat ijodkorlar uchunmi yoki...**

— Bu kitoblarni uch-to'rt yil davomida o'nlab kitoblarni o'qib, mavzuga oid esselarni saralab olib, tarjima qildim. Bu ikki kitob, avvalo, Ijod maktabi o'quvchilariga mo'ljallangan. Ikkinchidan, har qanday kitobxon o'qisa zarar qilmaydi, faqat foydali. Bugun zamon shuni talab qilyapti. Kitob do'konlariga kirsangiz, kitobxon saviyasini tushirib yuboradigan kitoblar qalashib yotibdi. Chiroyli muqovada chop etib, yaxshigina daromad qilishyapti ham. Menimcha, kitobni tanlab o'qiydigan kunlar keldi. “Mutolaa sirlari”da jahon adabiyoti namoyandalarning kitob o'qish tajribalari o'zlarining tilidan hikoya qilingan. Bu

katta saboq-ku! Bizda hozirgacha bunday mavzuda kitob ko'rmadim. “Bir daqiqada nechta so'z o'qish mumkin” yoki tez o'qish yo'llari ko'rsatilgan qo'llanmalar bo'lishi mumkin. Bularni texnik ko'rsatkich, deb atash mumkin, ammo nazariya yoki amaliyot emas. “Ijod falsafasi” esa, yosh ijodkorlar uchun tayyorlandi. E'tibor bersangiz, o'zbek va jahon adiblarining ijod jarayoni deyarli bir xil: hayotiylik, haqiqatni yozish, turmush sirlarini, tarix va voqealarni o'rganish va hokazo. Bu og'ir va mashaqqatli yo'l, ayniqsa, yozuvchi uchun. Umuman, bo'lajak yozuvchi kitob o'qishni ham, kitob yozishni ham mukammal egallasin. Bu ikki kitob yoshlarga to'g'ri yo'l ko'rsatadi va maqsadiga yetishda yaxshi maslahatlar bera oladi, deb o'ylayman. Ijod jarayoni haqidagi qo'llanmalar deb aytish mumkin.

— **Bilamizki, siz serqirra ijodkorsiz: she'riyat, tarjimonlik, publitsistika... bu yo'nalishlarning bir-biriga zid jihatlari ham bormi?**

— Yozuvchi adabiyotga kirib kelar ekan, o'z oldiga aniq maqsad va vazifa qo'yishi kerak. Maqsad yo'lida esa, muvofiq keladigan janrlardan foydalanadi. She'rga sig'magan fikrni nasr yoki publitsistika vositasida o'quvchiga yetkazadi. Har birining o'ziga xos imkoniyatlari bor. Yaxshi yozilgan ocherklar hikoyalardan ko'ra o'qishli chiqishi mumkin. Afsuski, hozirga kelib publitsistikada ocherklar kam yozilmoqda, o'quvchini hayratga soladiganlari onda-sonda uchrab qoladi. Savolingizga kelsak, ijodkor men shoirman, deb osmonga qarab, Ilhom parisini kutib o'tirishi kulgili hol. Shuningdek, to'rtta she'r yozib, bir umr o'shalarni qayta-qayta o'qib yuradiganlar ham adabiyotga foyda keltirmaydi.

Biz katta adabiyot yaratishimiz kerakki, buning uchun har bir ijodkor adabiyotni boyitish yo'lida mehnat qilishi lozim.

— **Asosan qaysi tildan tarjima qilasiz? Umuman, chet tillarini o'rganayotgan ijodkor yoshlarga qanday maslahatlaringiz bor?**

— Rus mumtoz adabiyoti namoyandalari – Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Anton Chexov asarlarini bolalikdan o'qib-o'rganganim uchun tarjima qilish menga qiyinchilik tug'dirmaydi. Shuningdek, Viktor Shklovskiyning “Lev Tolstoy” biografik romanini ham tarjima qilishda avval o'qigan kitoblarim yordam berdi. Ijod maktabi o'quvchisi yozuvchi bo'laman desa, albatta, shu kitobni o'qib chiqishini istardim. Unda Tolstoyning bolaligidan umrining oxirigacha hayotida kechgan muhim voqealar, dunyoga mashhur asarlarining yozilish tarixi batafsil yoritilgan. Bundan tashqari rus tilidan Yuriy Nagibinning o'smirlar uchun qissa va hikoyalari, David Samoylovning doston va she'rlarini tarjima qildim.

Qattiq ta'sirlansam ingliz tilidan tarjima qilaman. Jeyms Joysning she'rlari, Edgar Po esselarini o'zbekchaga o'girdim. Tarjima uchun ingliz tili qulayroq tuyuladi. Shu o'rinda aytib o'taman: tarjimon o'zbek tilini juda yaxshi bilishi kerak, chunki u o'zbek kitobxonini uchun boshqa tildagi asarni qaytadan yaratadi. Chet tilini bilsa bo'ldi, deganlar adashadi. She'r tarjima qilish uchun, albatta, shoir bo'lishi lozim deb o'ylayman. Tarjima maromiga yetganda ijodkorning ilhomi keladi.

Qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz tili singari qardosh xalqlar adabiyotidan namunalarni ham o'zbek tiliga o'giranman. Bularni tabdil desa ham bo'ladi.

— **Qanday insonlar bilan suhbat qurishni xohlaysiz?**

— Rus she'riyatining quyoshi Aleksandr Pushkin «yaxshi insonlar» bilan suhbat qurish ham kitob o'qishday gap, degan ekan. Bizning suhbatlar, asosan, adabiyot haqida bo'ladi. Bu borada hazrat Alisher Navoiy bobomizning mashhur bayti bor. Yodingizga tushgandir.

Albatta, men har doim yoshi o'zimdan ulug' insonlar suhbatiga intilganman. Aslida ijodkor uchun har qanday kishi suhbat, bilsangiz, foydadan holi emas. Yana bir gap. Ispan faylasufi Ortega i Gassetning aytishicha, kitob ham shaxs! U nashrdan chiqqandan so'ng odamlar orasida yashab, o'ziga yaqin do'st qidiradi. Mening shunday do'stlarim ko'p.

— **Ham suhbat, ham saboq bo'ldi, tashakkur, ustoz!**



9-“A” sinf o'quvchisi Behruz MO'MINOV suhbatlashdi.

O'ZBEGIM

Quyosh ham seni deb nur sochar, balki
O'zliging o'zingga xosdur, o'zbekim.
Yashaydi yuraklar erk deya qalqib,
Mustaqil zamoning rostdur, o'zbekim.

Tog'larga ergashib tog' bo'lsak bir kun,
Ko'ngilda qoluvchi chog' bo'lsak bir kun.
Ko'zimiz kimgadir armon bo'lg'usi,
Hozircha, g'o'ramiz, niholmiz bugun.

Borsak havas ila borarmiz ildam,
Yaratgan imkonning rostdur, o'zbekim.
Jahonning eng oliy pog'onasida,
Mustaqil zamoning rostdur, o'zbekim.



**SENI
TOPGUNIMCHA**


Bahordan ayrildim, tushimda yashil –
Vodiylar sarg'aydi kuzlab muttasil,
Qorlardan ayrildim, qoldim befasl,
Seni topgunimcha.

Shirindan so'radim ko'z yosh bir kosa,
Kosaning yuzida o'ynar raqqosa,
Bunchalar cho'zilib ketdi masofa,
Seni topgunimcha.

Ishq balki bitikdir, yo dona sadaf,
Oyog'im tuproqqa botar basma-bas,
Hayyomning qo'lida bo'ldim may, qadah,
Seni topgunimcha.

Muhabbat gulladi ming yil muqaddam,
Novdasi yetildi mevasi bilan,
To'kildi eng so'nggi yaproqlari ham,
Seni topgunimcha.

Sen balki kechagi, qadim ertagim,
Bukildi kechagi, alifdek qaddim,
O'zimni yo'qotdim, o'zimni topdim
Seni topgunimcha...



**Hojiakbar
ZIYNATSHOYEV,
Erkin Vohidov ijod
maktabi 11-sinf
o'quvchisi**

SEVMADING

Ey, sochlari paxmoq qiz,
To'ptosh o'ynar to'qmoq qiz,
Sen bechora ahmoq qiz,
Bilmading-a, bilmading,
Sevmading...

Tug'ilgan bir gul g'uncha,
Yechilmadi tuguncha,
Men qaytib kelgunimcha,
Kelmading-a, kelmading,
Sevmading...

Somon bo'ldi yuragim,
Yomon bo'ldi yuragim,
Tamom bo'ldi yuragim,
Ko'nmading-a, ko'nmading,
Sevmading...

Ey, sochlari paxmoq qiz,
To'ptosh o'ynar ahmoq qiz,
Ha, quvnoq qiz, quvnoq qiz,
Bilmading-a, bilmading,
Sevmading...

narsaga erishadi, ya'ni qanot chiqarib haqqa ucha oladi.
Xalq dostonlarimizdagi jangovar ot obraziga mos mifik belgilardan biri bu — otning qushga mengzab tasvirlanishi, aniqroq aytadigan bo'lsak, qanotli ekanligidir. Ot obrazining badiiyligini ta'minlashda birgina detalning muhimligini, jumladan, xalq baxshilarining tafakkur salohiyati, fantaziyasini va badiiy mahoratini ochib berish uchun epik otlardagi ana shu sifat to'g'risida imkon qadar to'laroq fikr bildirishni ma'qul deb bildik.

Qanot otlarda doim ham ko'zga ko'rinavermaydi. Qahramon va oti mushkul vaziyatda qolganida, otning roziligi bilan uning jismiga egasi tarafidan zarb bilan juda ham qattiq qamchi uriladi va ot samoga ko'tariladi. Qanot detalidan aksariyat hollarda dushman qurolidan saqlanishda, shuningdek, poygada foydalaniladi.

"Alpomish" dostonida Barchinoyning birinchi sharti orasi qirq kunlik masofa bo'lgan Boboxon tog'igacha ot bilan poygada qatnashish edi. Qalmoqlardan bo'lgan asosiy raqib Ko'kaldosh g'irromlik yo'lga o'tadi, ya'ni u Qorajonni va Boychiborni bog'lab, otning oyoqlariga gul mixlar qoqib ketadi. Bog'langan banddan halos bo'lgan Boychibor ilojisiz qolgan Qorajonga dalda beradi (aslida Rajabxo'ja pir-A.T)

Dam shu damdir o'zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema,
Qoldim, deb Qorajon, sira g'am yema.
Jabr qilgin bunday hayvon joniga,

Qamchi urg'in go'sht ko'targan soniga,
Yetkazarman Boysun-Qo'ng'iro't xoniga...

Qorajon qamchi urgach, Boychiborning to'rt yarim gaz qanoti yozilib, "yashinday bo'b" osmonga ko'tariladi va natijada Boychibor aytgan gapining ustidan chiqib, Qorajonni g'alabaga yetkazadi.

Dastavval, dostondagi qanotli tulporning mifik asoslarini yoritishga urinib ko'ramiz. Qadimdan ajdodlarimiz otlarning qush yanglig' uchishiga ishonib kelishgan. Bu mifik tasavvurlarning ildizlari turkiylar yashagan hududlarda olib borilgan arxeologik qazishma ishlariga borib taqaladi.

Xalq dostonlarida otning qanot chiqarib ko'kka uchishi, qahramonni g'oliblikka yetkazishi yoki uni o'limdan asrab qolishga oid tavsif-u tasvirlarni bir tomondan mubolag'a, o'xshatish, sifatlash kabi badiiy tasvir vositalari bilan bog'lab talqin etish, ikkinchi tomondan esa turkiy xalqlarning qadimgi mifologik tasavvurlari o'laroq kelib chiqqanligi holda tahlil qilish ham o'rinni. Yuqoridagi dalillarimiz buni isbotlab bera oladi.

Qanot sababli Boychibor bir harakat bilan cho'lga kelib qo'nadi:

Ko'zin ochib alp Qorajon qaradi,
Yer yuzida bedov ketib boradi.
... Boychibor boradi shunday arqirab,
Tuyog'ida to'rt sixi bor yarqirab,
Irg'iganda qumlar ketdi tirqirab,
Borayotir cho'lga shunday shirqirab .

Shu o'rinda savol tug'iladi: nima uchun Boychibor o'sha bir urinishda poyga maydoniga biryo'la yetib kelmadi?! Qanotdan to'liq imkoniyatda nega foydalanmadi? Oyoqlariga mixlar urilgan otning shuncha azob chekishiga nima majbur qildigandini uni?

Bu o'rinda baxshining badiiy mahorati yana bir bor ko'zga tashlanadi. Eng birinchi o'rinda doston baxshisi tulporning egasiga bo'lgan yuksak sadoqatini ko'rsatmoqchi bo'lyapti. Shu bilan bir qatorda, cho'ldagi qanotsiz poyga davomida otning real voqelikdagi chopqirligiga urg'u berib o'tyapti. Boychiborning qiynalganini sezib turgan tinglovchining otga bo'lgan mehr-muhabbati yanada ortadi. Yana shu narsani aytib o'tishimiz kerakki, mabodo Boychibor marraga uchib kelganda Qorajon bilan uning xiyonatkor akasi o'rtasidagi "cho'ldagi kurash" va Oybarchinning "Quryo-qur hayt-a, to'ramning oti..." deb boshlanuvchi nolishiga o'rin qolmasdi va dostonning ta'sir doirasi nisbatan sayoz bo'lib qolardi.

Xulosa qilib shuni aytamizki, dostonlardagi qahramon otini istalgan o'rinda qanotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Tulpordagi qanotning, umuman olganda, barcha mifik belgilarning bo'lishi ham bekorga emas; bu belgilar doston va asar uchun muhim detal bo'lib xizmat qiladi. Bu unsurlar dostonlarning tinglashlilik va o'qishlilik darajasini birmuncha oshirib, insonda favqulodda qiziqish uyg'otadi. Bu o'rinda doston baxshilardan yuqori did va mohirlik talab etiladi. Xalq dostonlarimizning necha mingyilliklardan beri xalqimiz orasida saqlanib, shuhrat topib borishida ham ana shunday mifik belgilar, mubolag'a va o'xshatishlar hamda to'qima voqealarning hissasi g'oyatda beqiyosdir.

**Shahlo MAHKAMOVA,
Erkin Vohidov nomidagi ijod maktabi murabbiyi.**



ADABIYOTDA OT OBRAZIDAGI QANOT DETALI

Xalq og'zaki ijodi doimo o'sha xalqning tarixi, milliy an'analari va qadriyatlarining "bulug'i" bo'lib kelgan. Shu sababli ham istiqloldan to hozirgi kunga qadar ham xalq og'zaki ijodi, diniy va milliy qadriyatlarimizga e'tibor oshib bormoqda.

Xalq dostonlarimizdagi mifologik qatlamni, yuksak badiiyatni, epik qahramonning mardligi, jasorati va qahramonliklarini uning doimiy hamrohi ot obrazisiz tasavvur eta olmaymiz.

Otning ota-bobolarimiz yozma adabiyotida ham alohida obraz qilib olinganligiga guvoh bo'lamiz.

Chunonchi, turkiylar madaniyatining asosiy manbalaridan biri sanalgan "Baytarnoma" nomi bilan mashhur bo'lgan yozma asarlar tashkil qiladi. Unda asosan otlarning vazifalari, ranglari, yurish shakllari, parvarishlash, tarbiyalash, ot xastaliklari va ularni qanday davolash usullari hamda ot tanlashga doir maslahatlar berilgan.

Bu asarlar dastlab fors va arab tillarida yozilib, keyinchalik turkiy tillarga ham o'girilgan. "Baytarnoma" Yoqub ibn Hizom al Xuttaliy qalamiga mansubdir. Ushbu asardan ajdodlarimizning ot bilan bog'liq mifik tasavvurlarini o'rganib olamiz. Ushbu asarda otning yaratilishi borasidagi turfa afsonalar ham uchraydiki, bunday ma'lumotlar xalq og'zaki ijodidagi mifik ot obrazining ko'p tomonlarini yoritib berishda bizga ko'mak beradi.

Xalq dostonlarimizda Buroq ot obrazi ham o'z badiiy ifodasini topgan. "Dalli" dostonida Hasanzon G'irotda:

Nazarkarda jonivorim,
Men seni sira ko'shmayman,
Yilqilarning hisobiga.

Sen behishting burog'isan .

Payg'ambarimizning Me'roj kechasida Masjid-al Aqsodan osmonga olib chiqqan jonzotga Buroq deb nom qo'yilgan. Buroq arabcha so'z hisoblanib, "chaqmoq", "barq urmoq", "yaraqlamoq" ma'nolarini beradi. Bu mahluqning oq rangdaligi, o'ta ko'rkamligi hamda xachir bilan eshak o'rtasidagi bir jonzot ekanligi rivoyat qilinadi. Ba'zi bir manbalarda Buroqning qanotli ekanligi, bu qanotlari yordamida ko'zi ko'ra oladigan uzoq masofani ham bir zumda bosib o'ta olinishi haqida so'z yuritiladi.

Me'roj hodisasi bilan bog'liq manbalarda dastavval Buroqning Hazrati Payg'ambarimizni mindirishga ko'nmaganligi, Jabroil kelib bu zotning shu paytga qadar ustiga mindirgan kishilarning eng ulug'i va eng buyugi ekanligini uqtirgach, jim turib badani terga botganligi qayd etiladi.

Ma'lumki, majoziy ifoda tarsi tasavvufning o'ziga xos unsurlaridan biri hisoblanadi. Chunonchi, ko'plab mutasavvuf olimlar Me'roj tunidagi Buroq otning ishq ilohiy ramz ekanligini ta'kidlashadi. Ularning fikriga ko'ra Buroq o'zidan kechib, ishqqa intilgani uchun aql bilan erishib bo'lmaydigan

ORZU

Huv tog'larda bo'lib qolsaydim,
Tundan qaro ko'zlarim yumsam.
Hayqirsamu dardlardan kechib,
Shamol bilan sayr etib yursam.

Qorlar bilan erisam birga,
Irmoq bo'lib bog'larga oqsam.
Yo tog'larning ortidan chiqib,
Quyosh bo'lib dunyoga boqsam.

**Ruxshona
ISROILJONOVA,**
Erkin Vohidov ijod
maktabi 11-sinf
o'quvchisi

MEN

Quvnoq sabolarni kutguvchi qalbga,
Ayyor qaroqchiday yo'lolmas dovul.
Qalbmning qasriga soqchi kerakmas,
O'zim malikaman, o'zim qorovul!

QISHLOQQA MAKTUB

Shahar shovqinidan bezadi yurak,
Sog'inch ezaverar mitti jonimni.
Eng qiyin davradan bilaman afzal
Qishlog'im bag'rida o'tgan onimni.

Bilaman, qishlog'im, sog'inding sen ham
Biroz quv, qalbi pok, jajji qizingni.
Ha, rosti bir bora ko'rgim kelyapti,
Chang ko'chalar aro bosgan izimni.

Arg'imchoqdan aslo tushmasdim avval
Men o'sha qizaloq ha, sho'x qizaloq!
Yo'lim kut, yo'limga poyandoz to'shab
Bir shoirang bo'lib qaytaman, qishloq!



MENING DO'STIM ROBOT



Dunyoda ilm-fan, kompyuter texnologiyasi rivojlangan paytda Sodiq ismli bir bola bo'lgan ekan. U unchalik ham o'qishga qiziqmas, lekin u robotlar yasash va ularning dizaynini yaratishni xohlardi. Kunlardan bir kun esa maktabga kelayotganida bir e'lonni ko'rib qoldi. Unda shunday yozilgandi.

"Robototexnika to'garagi iqtidorli va qiziquvchan bolalar uchun dushanbadan payshanbagacha soat 16.00 dan 18.00 gacha, eshiklarimiz ochiq!" Sodiq uyi tomon yugurdi va onasidan ushbu to'garakka qatnashishiga rozilik oldi. Mana, haftaning birinchi kuni.

Sodiq berilgan manzilga yetib bordi va o'zini to'garak rahbariga tanishtirdi. U mashg'ulotlarga qatnab, yaxshi o'zlashtirdi. Vanihoyat birinchi robotini yaratdi va unga Robo deb nom qo'ydi. So'ng, uni yoqib, aytdi.

- Sen Robosan.
- Men Roboman, — dedi robot.
- Men esa Sodiq, seni yaratgan insonman.
- Men Roboman, sen Sodiq.
- Ha, So-diq. Endi bunday qilamiz: sen menga uyga vazifalarimda yordamlashasan.
- Albatta, yordamlashaman.

Shunday qilib, Robo unga dars qilishga yordamlasha boshladi-yu, Sodiqning ham o'qishga qiziqishi tobora kuchayaverdi. Ammo, nima bo'ldi-yu, Roboni yo'qotib qo'ydi. Bundan u juda xafa bo'ldi, tushkunlikka tushdi. Keyinchalik esa ko'nika boshladi.

Yillar o'tdi. U ulg'ayib yaxshi kasbni egaladi, farzandli bo'ldi. Bir kuni o'g'li omborda o'ynayotib, bir narsaga ko'zi tushdi va shunday dedi:

- Dadajon, bu nima?
- Sodiq hayratlanib qarab turdi-da, o'ychan javob berdi:
- Bu mening do'stim, robot...

Botirjon TO'YCHIYEV,
7-"A" sinf o'quvchisi.



SO'Z OLAMIGA KICHIK SAYOHAT



Ijod maktabi tashkil etilgan kundan qadam-maqadam faoliyat yuritib kelayotgan "Nasr" to'garagimizda yangi loyiha – Farg'ona shevasini jamlab, mo'jaz to'plamga joylash g'oyasi tabiiy ravishda yuzaga keldi. Ya'ni to'garagimizda har mashg'ulot So'z olamiga sayohat mashqi bilan boshlanishi an'anaga aylangan va shu asno viloyatimizdagi turli hududlarning sheva so'zlari bot-bot tilga olinadi, ularning ajib tarixi, talaffuziy jozibasini, latifligi qalblarda ona tiliga muhabbat hissini jo'sh urdiradi. Va har safar o'quvchilarga bu so'zlarni avaylash, saqlash va umrboqiyiligini ta'minlash uchun o'zbek adabiyotiga mohirlik ila olib kirish zarurligini uqtiraman. Oxirgi paytlarda munozaralarimiz to'garak doirasidan ancha kengayib ketdi, o'quvchilar beixtiyor izlanishga tushdilar, badiiy asarlardagi shevaga doir so'zlarni tahlil qilishga kirishib ketdilar.

Ayni shu paytda ijtimoiy tarmoqda tilimiz fidoyilari Ma'rufjon Yo'ldoshev va Zuhra Yo'ldoshevalar muallifligidagi "Buvayda shevasidan ixcham lug'at" nomli ajoyib kitobcha haqida xabar o'qidik va shu xodisa turtki bo'lib, harakatimizni boshlab yubordik.

Mana, nihoyat bizning ham kitobchamiz tayyor bo'ldi!

Albatta, bizning lug'at yuqoridagi to'plamdan farq qiladi: asosan to'garagimizning doimiy a'zolari o'z hududlaridan so'z qidirganlari sababli bir oz cheklanishlar bo'lishi mumkin; Buvayda shevasi yoritib bo'lingani bois deyarli kiritmadik; yaqin hududlarni birlashtirib oldik. Eng asosiysi – kitobcha to'liq, yuz foiz o'quvchilar mehnatining mahsuli! Muharrir, tayyorlovchi, musahhih, dizayner, to'plovchi – barchasi o'quvchining o'zi. Bu – ijod maktabi yosh nosirlarining jamoaviy birinchi qadami!

Farg'onaliklar nisbatan adabiy tilda so'zlashishlarini inobatga olgan holda, o'g'il-qizlarimizning hartugul "xirmon" yiqqanlari quvonarlidir. Umid qilamizki, bolalarimizning beg'ubor izlanishlari bir kichik tadqiqot sifatida bu risolaning varaqlagan kishini befarq qoldirmaydi. Hali bu izlanishlar davom etishi va jilg'alar daryoga qo'shilib, o'zbek tilini boyitishdek ulug' ishga baholiqudrat hissa bo'lib qo'shilishiga ishonamiz.

Gulchehra ASRONOVA,
"Nasr" to'garagi rahbari.

TENGLIK QILING!

O'zbek tili kimningdir shaxsiy tamarqasi emas. Til umummilliy merosdir. Ming yillardan buyon tildan tilga o'tib kelayotgan toponimlar—joy nomlari ham xalqning umumiy boyligi. Joy nomi qaysidir kattaga yoqmagani uchun uni o'zgartirish o'sha yerning aholisi uchun borib turgan hurmatsizlik hisoblanadi.

Bir paytlar O'zbekiston xalq shoiri Muhammad Yusuf «Mingtepani ataylik o'z nomi bilan» deb bekorga aytmagandi. O'zbek xalqini azbaroyi sevganidan, o'zbek tilini ardoqlagani uchun aytgan.

Mustaqil bo'lib turib, o'z tilimizni mensimas ekanmiz, bizni hali ancha muammolar kutyapti. Ohangaronni Angren dedik, Sirg'alini Sergeli dedik, Qirg'ulini Kirgili dedik, Sobiq Ittifoq davrida. Eng yomoni, haliyam shunday deymiz. Undan ham yomoni, milliy tildagi joy nomlarini ajnabiy tildagi so'zlar bilan atash urf bo'lyapti. Odat bo'lib ulgurdi allaqachon.

Biror yurtdoshimiz o'g'liga Messi, Ronaldo deb ism qo'ysa, kulamiz. Lekin kent(shahar) so'zining o'rniga city so'zi hamma yoqqa to'lib ketsa, hayron bo'lmaymiz.

Masalan, men Farg'ona viloyati Bog'dod tumani Cho'rindi (Chuvrindi emas!) qishlog'ida tug'ilganman. Bog'dodda Olchin, Uyrat, Kenagas, Do'rmon, Qashqari-makey(kichkina Qashqar), Irg'oli, Bolg'ali, Katta Xitoy, Kichkina Xitoy, Qo'g'oli, Chuvalanchi singari qishloqlar ko'p. Bu qishloq nomlari 92 bo'li o'zbek urug'ining nomlaridir. Cho'rindi so'zi ham xuddi shunday. Tarixiy manbalarga ko'ra, cho'ran (churan) degan turkiy urug' bo'lgan. Cho'rindi so'zi ham xuddi shu urug' nomidan kelib chiqqan. Chuvrindi so'zidan emas! Buni yaxshi bilib qo'yish kerak. Bir paytlar tumanimizda Buzoq qishloq(Buzovqishloq) bor

edi. Yoshlar or qilib, uning nomini Mirzaobod qishlog'i deb o'zgartirishdi. Aslida, Qadim bu nom hayvonning emas, qadimiy turkiy qabilaning nomi edi. Umuman olganda, Bog'dod tumani juda olis tarixiy ildizlarga ega. Tuman nomidan tashqari, yana Bog'dod va Samarqand qishloqlari ham bor. Bu haqda hatto Turdi Farog'iy ham yozgan: "Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling, To'qson ikki bo'li o'zbek yurtidir bu, tenglik qiling". Xullas, shunaqa gaplar...

Buning o'rniga, yurtimizda G'alcha, Kalamush, Oqtovuq, Oshqozon, Ichak qishloqlar bor, shularning nomini o'zgartirish kerak, aslida. Lekin bunda ham bir narsaga diqqatli bo'lish kerak: bu so'zlar biz o'ylagan so'zdan boshqa ma'noni ham bildirishi mumkin. Yoki vaqt o'tishi bilan fonetik o'zgarishga uchragan bo'lishi ham, ehtimol.

O'zbekistonni qanday asrash kerak bo'lsa, o'zbek tilini ham shunday himoya qilish bugungi zamonning eng dolzarb masalasidir. Biz borgan sari o'z onasidan uyladigan silliq oliftalarga o'xshab qolyapmiz. Onamizning yuzi oftobda nega kuyganini, nega ajin ekanini, uning qo'llari nega erkaklarnikidek dag'al ekanini esimizdan chiqarib qo'yyapmiz. Bu xayollar meni juda ko'p qiynaydi. Menga qattiq alam qiladi. «Ona tilim, kechir meni, ona tilim»...

Davlatjon KARIMOV,
"Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi.

BEDIL



Kampir naqsh solingan yog'och ustunga manglayini berib, temir darvozaning sovuq panjaralariga ko'zlarini tikib o'tiribdi. Ammo o'zi buni bilmaydi... Uning ochiq, lekin abadiyga so'ngan ko'zlari faqat qorong'ulikka o'ralgan bo'shliqningina ko'rishga qodir. Afsus... Nahot kampirning tilab-tilab olgan yolg'iz o'g'li o'z onasiga shu fayzsiz go'shani ravo ko'rди?!

Yog'och ustunning muzlagan tanasi kampirga o'g'lining sovuq va qor bosgan qalbini, oxirgi marta qulog'iga chalingan aldamchi, ammo muloyim ohangini eslatardi. Eh, o'g'lining asl maqsadini bilishga kampirning ko'zlari ojizlik qilmaganida edi...

U bu yerga kelganda faqat qayergadir shoshilayotgan odamlarning qadam tovushlarini, g'alati va yalingannamo ovozlarnigina eshitgandi, xolos.

Hozir esa... U biladi. Nima uchun o'g'li uni olib ketgani kelmayotganini aniq

biladi. Nogahon eshitib qolgan bir suhbat kampirning yuragini yaraladi, balki uzoq yillik umidlarini ham yo'qqa chiqardi...

— Men ketaman! Ketaman... Bu yerda qolishni boshqa xohlamayman. Farzandlarimning oldiga olib boring, olib boring meni!

— Kechirasiz, ammo farzandingizning o'zi sizni shu yerga tashlab ketdi. Afsusdaman! U bizga hech narsa qoldirmadi... Kechirasiz, bir daqiqa. Allo, Qariyalar uyi eshitadi...

Shu so'zning o'zi kampirga yetarli bo'ldi. Uning izg'irin shamol uchirgan sovuq qor parchalariga qorishib ketgan ko'zyoshlarini ko'rgan kishi karaxt bo'lishi tayin edi.

Lablari asta titrar, faqat bir so'zni qaytarardi:

— Bedil!..

**Madinabonu
ABDUSALOMOVA,**
8-"A"sinf o'quvchisi.



BOLALIK

Yashashni yosh boladan o'rgansa arziydi. Hech sababsiz tabassum qiladi; yiqilsa, darhol o'rinidan turib ketadi; bir narsani xohlarsa, yetishmaguncha chekinmaydi; qiziqirgan narsasini anglab yetmaguncha uni hech narsa to'xtata olmaydi; aslo qo'rquvni bilmaydi; urishib ko'ysangiz ham gina qilmaydi...



Mana, bahor nafasi urib turibdi. Bolaligimizda kapalak bilan gavjum bo'lgan gulzor yana o'sha holatda. Hali bu qanday jonzot ekanini bilmasa-da, ortidan qolmayotgan Sardor onasining oldiga yetganida to'xtatib so'radi:

— Oyijon, bu nima, farishtami?
Ona og'iz ochishga ham ulgurmasidan opasi Go'zal kelib javob berdi:

Shuni ham bilmaysanmi? Axir bu...
Shunday deb atrofiga qaradi, ukasi esa yo'q. U kapalak ortidan ergashib chopib ketibdi.

Bir payt u «farishta»ni tutib oladi:
— Opa, qarang, qanotlari chiroyli ekan-a?!

...Bolaligimizda kapalakni tuta olgandik, xo'sh, hozir bolaligimizni tutib qola olamizmi?..



Latofatxon SOTVOLDIYEVA,
10-sinf o'quvchisi

HOMELAND

When I travel your garden,
You are homeland in the heart.
When the garden ends beautiful poem,
I named in your initially.

Word praise thousand of languages,
It's grew anybody tree.
Absorb light millions eyes,
At sky looked beauty yours.
Translated by;Arabjonova Kamola

VATAN
Bog'laringni sayr etganimda,
Sen bor eding qalbda vatanim.
Bog' husniga she'r bitganimda,
Uni dastlab senga atadim.

Minglab tilda madhingni so'zlar,
Unda o'sgan har bitta daraxt.
Nur emadi millionlab ko'zlar,
Ko'kdan sening husningga qarab.
Written by Erkin Vokhidov



Translated by Kamola ARABJONOVA
Pupil of 9-«B» class.

WHY IS THE PARROT STUBBORN?

I have a fellow — Motti,
And a parrot he has got.
Motti is obsolete wayward,
The bird is more than Motti.
«Be quit, hey!» says Motti.
«Don't shout!» repliyes the parrot.

They make fun of each others.
When one of them is upset,
The other laughs out loudly.
«The cage is narrow» says the parrot.
«Get stuck, diye» repliyes Motti.

The boy is insatible to eat,
Eats higgledy-piggledy.
He suffers from diarrhea,
His head's hot from temperature.
«Oh, my stomach» says Motti.
«Be worse» repliyes the parrot.

Once always a hungry rat
Appaired inside the room.
The bird shiveres in the cage.
The boy liyes down on shade.
«Hey, deserter» says the bird
«You're coward» repliyes Motti.

Toppled down from bicycle,
Disabled Motti a little,
Laying down moaning.
The parrot is looking grinning.
If soft-spoken is Motti,
Won't be stubborn his parrot.



Written by Anvar Obidjon
Translated by Mubinabegim
BAXTIYOROVA
Pupil of 7-b class.

QISMAT

Inson hayoti shatranj taxtasidagi
piyodaning yurishiga o'xshaydi. Goh oq
katakdan o'tadi, goh qora katakdan...
farqi shuki, birovning qismatida oq
kataklar ko'proq bo'ladi, birovnikida
qora kataklar...

FATE

Human life is like walking on a
chessboard. Sometimes it goes through
a white cage, sometimes it goes
through a black cage... the difference
is that someone has more white cages,
someone has more black cages...

ROST VA YOLG'ON

Haqiqatdan qo'rqqan odam yolg'onning
panasiga berkinadi.

TRUE AND FALSE

A person who is afraid of truth hides
behind a liye.

Yuragimga yurib kirasiz,
Yuragimdan ketasiz chiqib...
Nafasim yetmaydi
«qoling» demoqqa
Ruhim devorini o'tasiz yiqib.

Bor-yo'g'i — Yurakman
Mahtal bir ishqqa,
Barcha gunohingiz keladi kechgim.
Sochilib ketaman sizsiz bo'shliqqa,
Meni
terib
olmaydi
Hech kim !



Written by Zebo Mirzo Translated by Nilufar
HAYDARALIYEVA Pupil of 10-class.

FARISHTALAR

Xonadoningizda kekxa odam bormi?
Baxtli ekansiz! Dunyo tashvishlaridan to'yib
ketsangiz shularni ziyorat qiling: hayot abadiy
emasligini o'ylab, taskin topasiz.

Xonadoningizda go'dak bormi? Siz ham
baxtli ekansiz... dunyo tashvishlaridan to'yib
ketsangiz, go'dakni bag'ringizga bosing:
hayot abadiy ekanini o'ylab, taskin topasiz...

ANGELS

Is there an elderly person in your
apartment? You are lucky! When you are fed
up with the worriyes of the world, visit: you
will find solace in the thought that life is not
eternal.

Do you have a baby in your room? You are
happy too ... when you are fed up with the
worriyes of the world, hold the baby in your
arms: you will find solace in the thought that
life is eternal ...



Written by O'tkir Khoshimov
Translated by Dilafruz
TOSHPO'LATOVA Pupil of 11-class.

You walk into my heart,
You will leave my heart ...
I can't breathe
to say «stay»
You will cross the wall of my soul.

All I have is a heart
A love I need
All your sins I will forgive.
I'll be poured into space without you,
No one can collect me!

TRANSLATE

